



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 4

Published: 05.04.2025
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA LOYIHA BOSHQARUVINING RO‘LI

Ulug‘bekova Dilroza Ulug‘bek qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi 2-kurs tinglovchisi

Uzbekistan

dilroza2510@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada biznes jarayonlarini tashkil etish dolzarb masalalari, loyiha boshqaruvida biznes jarayonlarining o‘rni, biznes jarayonlarini o‘ziga xos xususiyatlari va ularning bosqichlari hamda loyiha boshqaruvining bosqichlarining o‘ziga xos xususiyatlarini haqida to‘xtalib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: biznes, loyiha, boshqaruv, jarayon, faoliyat, tizim, bosqich, ishlab chiqarish, resurs, tahlil, loyihalashtirish, rivojlatirish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются актуальные вопросы организации бизнес-протсессов, рол бизнес-протсессов в управлении проектами, особенности бизнес-протсессов и их стадий, а также особенности стадий управления проектами.

Ключевые слова: бизнес, проект, управление, процесс, деятельность, система, фаза, производство, ресурс, анализ, проектирование, разработка.

Abstract: This article examines current issues of business process organization, the role of business processes in project management, the features of business processes and their stages, as well as the features of project management stages.

Keywords: business, project, management, process, activity, system, phase, production, resource, analysis, design, development.

Language: English

Citation: Ulugbekova , D. (2025). THE ROLE OF PROJECT MANAGEMENT IN BUSINESS PROCESS IMPROVEMENT. Universal International Scientific Journal, 2(4), 12–21. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1483>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15174895>

Copyright © 2025 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc. This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0). <http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Kirish

Xalqaro amaliyotda loyihalarni boshqarishdan foydalanish tez rivojlanayotgan tizimlarda innovatsion g'oyalar va yuqori samarali boshqaruv texnologiyalarini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Bu birinchi navbatda moliya, soliq, qonunchilik, resurs tizimlariga taalluqlidir. Bunday boshqaruv tizimini qo'llash orqali ishlab chiqarish, ilmiy va ijtimoiy xarakterdagi murakkab muammolarni hal qilish mumkin.

Biznes jarayonlarini rivojlanishning hozirgi bosqichida loyihalarni boshqarish dunyoda biznes yuritishning eng samarali vositasi sifatida tan olingan. Biznes jarayonlarini takomillashtirishda loyiha boshqaruvi muhim ahamiyatga ega. Loyiha boshqaruvi tashkilotlarda maqsadli va samarali ishlashni ta'minlash uchun juda muhim mexanizmlardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mavzuga oid iqtisodchi olimlarning fikrlarini muhokama qilsak, biznes jarayoni juda ko'p va turli hil, ayni paytda juda o'xshash ta'riflarga ega. Masalan, A.V.Sheerning ta'kidlashicha biznes jarayonini "Oldindan belgilangan qoidalarga muvofiq dastlabki hom-ashyo, material yoki ma'lumotni yakuniy mahsulotga (xizmatga) aylantiruvchi takrorlanadigan harakatlarning va funksiyalarning bog'langan to'plamidir"[5].

V.Repin, V.Yeliferovlarning ta'kidlashicha "Biznes jarayonlari shunday tuzilganki, har bir jarayon manfaatdor tomonlar uchun xizmat qilishi kerak. Biznes jarayonini aniqlashda keraksiz harakatlar chiqarib tashlanadi[7]. Bizningcha, biznes-jarayoni, shuningdek, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xodimlarning eng minimal sonini o'z ichiga olishi kerak. Sababi bu tartib mahsulot yoki xizmat tannarxini (biznes jarayonining natijasida) kamaytirish

uchun zarurdir. Biznes jarayonlari va jarayon yondashuvini rivojlanishi sifat menejmenti tizimlariga qo'yiladigan talablarni tavsiflovchi bir qator standartlarini ishlab chiqdi.

Loyihani boshqarish uchun turlicha boshqaruv tuzilmasi–modellari mavjuddir. Loyihani masshtabi, hamiyati, muddati kabi omillarni hisobga olgan holda ulardan birini tanlab olinadi[2].

Shuni ta'kidlash joizki, jarayonli yondashuvi manfaatdor tomonlar uchun qiymat yaratish maqsadida biznesni tashkil etish va loyiha boshqarishning samarali usuli hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishini bajarishda metodologik bazasi bo'lib ma'lumotlarni to'plash, kuzatish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish asosida tadqiqotning iqtisodiy munosabatlarni va ularning rivojlanishidagi hodisalarni hamda o'zaro bog'liqliklarni o'rganishga nisbatan yalpi va tizimli yondashuvlarni nazarda tutuvchi umumiy ilmiy prinsiplari xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida tadqiqotning umumiy ilmiy va maxsus usullari – tahlil, usullari, iqtisodiy hodisalarni baholashga nisbatan mantiqiy, yalpi va tizimli yondashuvlar qo'llanildi. Tizimli yondashuv biznes jarayoni tushunchasiga aniqlik kiritish, biznes jarayonini shakllantirish konsepsiyasini, loyiha boshqaruvini yuritishda biznes jarayoni tizimini tahlil qilish va baholash uchun qo'llanildi. Muammoga nisbatan yalpi yondashuv biznes jarayonini tashkil etish, biznes

jarayonlarni boshqarishda hamda turli korxonalarini boshqarish sohasida biznes jarayonlarini takomillashtirish orqali loyihalar ishlab chiqish, tadqiqotlar o'tkazishni belgilab berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Biznes jarayoni bu shunchaki harakat emas, balki biznes strategiyasi, biznes modellari va doimiy operatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikdir. Bu biznes model mohiyatining moddiy ifodasidir. Biznes-jarayonlar kompaniyada amalga oshiriladigan faoliyat turlari va iste'molchilar bilan munosabatlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqliklarning mohiyatini belgilaydi. Shunday qilib, biznes jarayoni umumlashtirilgan shaklida bu korxonada faoliyatining rejalashtirilgan natijasiga erishish va kirish va chiqishlarga ega bo'lish uchun zarur bo'lgan takrorlanadigan harakatlar ketma-ketligidir

Loyihalarni boshqarish – boshqaruv faoliyati tizimining bir qismi hisoblanadi. Uning vositasida loyihadagi ishlar hajmi, resurslar (mablag', mehnat, materiallar, energiya, muhit va boshqalar), vaqt, sifat va xavf-xatarlar o'rtasida mutanosiblikni saqlagan holda loyihaning aniq maqsadlari belgilanadi va ularga erishiladi. Loyiha boshqaruvi bu resurslarni samarali taqsimlash va ish jarayonlarini boshqarish orqali ma'lum bir maqsadga erishish uchun mo'ljallangan jarayondir. Boshqaruv jarayonida rejalashtirish, ijro etish, nazorat qilish va tahlil qilish kabi bosqichlar mavjud.

Loyiha – cheklangan vaqt va resurslar sharoitida mahsulot (tovar, ish, xizmat) yaratishga qaratilgan, o'zaro bog'langan

yoki alohida olingan tadbirlar majmuasi ekan, aynan mana shunday tadbirlar boshqaruvi alohida tashkilot, korxonalar, shuningdek, butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar doirasidagi maqsadli o'zgarishlarning amalga oshirishini ta'minlaydi, negaki, u yangi mahsulot va xizmatlarni vujudga keltiruvchi kuchli vosita hisoblanib, ma'juziy ma'noda, muvaffaqiyatli ixtirolarning o'ziga xos universal kaliti sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy loyiha boshqaruvining bunday xususiyati kasbiy faoliyatning mazkur turiga universallik bag'ishlaydi.

Shu o'rinda biz loyiha boshqaruvining bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Bular asosan quyidagicha bo'ladi.

1. Boshqaruv istiqbolini belgilash. Bu loyiha boshqaruvi maqsadlarni aniq belgilash va ularga erishish strategiyasini ishlab chiqarishga yordam beradi.

2. Resurslarni boshqarish. Bunda loyihalar uchun zarur bo'lgan resurslarni (moliyaviy, inson resurslari, texnologiyalar) samarali taqsimlash va boshqarish loyiha jarayonini soddalashtiradi.

3. Tashkilot ichidagi muvofiqashtirish. Bu esa, loyiha boshqaruvi jamoa a'zolari orasida aniq munosabatlar va moslashuvni ta'minlash orqali biznes jarayonlarini muvaffaqiyatli realizatsiya qilishga xizmat qiladi.

4. Tahlil va monitoring. Bu asosan loyiha jarayonini kuzatish, ma'lumotlarni tahlil qilish va samaradorlikni baholash biznes jarayonlarini takomillashtirish uchun

muhimdir.

5. Xavflarni boshqarish. Bu albatta loyiha boshqaruvi ehtimoliy xavflarni aniqlash va ularni minimallashtirishda yordam beradi, bu esa biznes jarayonlarini soddalashtirishga olib keladi.

6. Samaradorlikni oshirish. Bunda loyiha boshqaruvi samarali mexanizmlarni joriy etish orqali jarayonlarni takomillashtirish imkonini beradi.

Loyiha Boshqaruvining asosiy yelementlariga ham to'htalib o'tamiz. Ular qo'yidagilar:

1. Rejalashtirish

- Maqsadlarni belgilash
- Vaqt va resurslarni belgilash
- Risklarni baholash

2. Ijro etish

- Jamoani shakllantirish
- Vazifalarni taqsimlash
- Ishlarni kontrollash

3. Nazorat qilish

- Loyiha rivojini kuzatish
- Ishlarni baholash va tahlil qilish
- Zarurat tug'lsa o'zgarishlar kiritish

4. Tahlil va Xulosa

- Loyiha natijalarini baholash
- Tajribani o'rganish
- Kelgusi loyihalar uchun takliflar

berish

Loyiha boshqaruvi faqatgina loyihalar bilan cheklanmaydi, u loyihaning aniq tavsifiga ega bo'lmagan har qanday ob'ektlarni boshqarishga nisbatan ham qo'llanishi mumkin.

Loyiha boshqaruvi sohasidagi birinchi ishlanmalar murakkab, yirik loyihalar va

dasturlarni boshqarishning aniq amaliy muammolarini hal qilish zarurati natijasida paydo bo'ldi. Va bugungi kunda loyihalarni boshqarish usullari va vositalarini ishlab chiqish amaliy tajribaga asoslanadi. Loyiha boshqaruvi intizomini rivojlantirishda ilg'or tajribalarni to'plash, ularni umumlashtirish va standartlashtirish jarayonlari muhim rol o'ynaydi. Biroq, turli sohalarda va muayyan loyihalarda loyihalarni boshqarish usullari va vositalarini qo'llash uchun menejerlar ularni takomillashtirish va moslashtirishlari kerak, bu esa o'z navbatida yangi usullar va vositalarni ishlab chiqishga olib keladi.

Loyihani boshqarish usullarini axborot tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish, biznesni qayta tashkil etish, marketing kampaniyalari, xodimlarni rivojlantirish dasturlari va boshqa ko'plab tadbirlarda qo'llash ko'plab tashkilotlarga tanish bo'ldi.

Ushbu yondashuvlarni qo'llashning yangi yo'nalishlari qatoriga yirik davlat loyiha va dasturlari ham, kichik va o'rta biznes sohasidagi kichik loyihalar ham kiradi. An'anaviy jarayonga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va boshqaruv tizimiga ega bo'lgan tobora ko'proq korxonalar o'zlarining rivojlanish jarayonlari samaradorligini oshirish uchun loyihalarni boshqarish tizimlarini joriy qilishni boshlaydilar.

Biznes jarayonlarini takomillashtirishda loyiha boshqaruvining roli statistika jadvallari bilan o'rganish muhimdir. Statistik ma'lumotlar loyiha boshqaruvini samarali yo'naltiradi va aniq qarorlar qabul qilish uchun zarur materialni taqdim etadi. Keling, statistika jadvallari va ularning biznes jarayonlari uchun ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Loyiha samaradorligi

Loyiha nomi	Maqsad	Bajarilish muddati	Olingan natija	Maqsad	Tahlil
Loyiha A	20% oshirish	6 oy	25%	Umumiy samaradorlik yuqori	Resurs yetishmasligi
Loyiha V	15% optimizatsiya	4 oy	10%	Maqsadga yetishi kerak	Texnik muammo
Loyiha S	30% ko'paytirish	8 oy	20%	Xavf ko'paytirish nigohda	Ob'ektiv ko'rsatkichlar

Jadval ma'lumotlarida uchta loyiha ya'ni A,B,C loyihalarining samaradorligi aks ettirilgan. Loyihaning maqsadi, bajarilish maqsadi, muddati, tahlili va olingan natija ma'lumotlari keltirilgan. Ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, maqsadning foizi qanchaligiga qarab resurs

yetishmovchiligi, texnik muammolari va boshqa ko'rsatkichlari to'g'risida bilish mumkin. Bunday ko'rsatkichlar tahlili asosan umumiy samaradorlik yuqoriligi, maqsadga yetishi kerakligi hamda xavf ko'paytirish nigohda bo'lsa, shunga qarab xulosaga kelish mumkinligini bildiradi.

Bozorlarda raqobatning rivojlanishi, iste'molchilarning mahsulot va xizmatlar sifatiga bo'lgan talablarining ortishi va shunga mos ravishda tashkilotlarning mahsulot qatori, ishlab chiqarish texnologiyalari va marketingida doimiy o'zgarishlarni amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotgan sharoitda loyihalarni boshqarishning ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda.

So'nggi yillarda loyihalarni boshqarish metodologiyasini qo'llash sohasi sezilarli darajada kengaydi. Biznes jarayonlarini takomillashtirishda loyiha boshqaruvining roli muhim hisoblanadi. Fikrimizni davom ettirgan holda shuni ta'kidlashimiz mumkinki, loyiha boshqaruvida biznes jarayonlarini takomillashtirish zarur hisoblanadi. Chunki bu orqali jarayonlarini tahlil qilish, ulardagi kamchiliklar va muammolarni aniqlash hamda ularning samaradorligi, tezligi va sifatini yaxshilash mumkin bo'ladi.


Biz biznes jarayonlarini takomillashtirishga borasida fikr yuritar ekanmiz, avvalo bu jarayonlarini takomillashtirish nimalarni o'z ichiga olishini hamda natijalar to'g'risida to'htalib o'tamiz.

Biznes jarayonlarini takomillashtirish - bu kompaniyaning

mavjud ish jarayonlarini tahlil qilish, ulardagi kamchiliklar va muammolarni aniqlash hamda ularning samaradorligi, tezligi va sifatini oshirishga qaratilgan faoliyatlar majmuidir. Bu jarayon kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, mijozlar qoniqishini ta'minlash va umumiy ish natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda dunyo olimlari fikricha loyiha boshqaruvi mustaqil boshqaruv intizomi sifatida tan olingan. Loyiha boshqaruvi rivojlangan yillar davomida nafaqat uning qo'llanilishi doirasi sezilarli darajada kengaydi, balki loyiha menejerlariga yordam berish uchun izchil usul va vositalar doirasi ishlab chiqildi. Bu borada birqancha olimlar, iqtisodchilar va ilmiy izlanuvchilar o'zlarining tadqiqotlarida asosli fikrlar berib kelmoqdalar.

Biznes jarayonlarini takomillashtirishning asosiy bosqichlari mavjud bo'lib, ular asosan jarayonlarni tahlil qilish, takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash va rejasini ishlab chiqish hamda natijalarni monitoring qilish va baholash kabilarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichlarni batafsil ko'rib chiqamiz.



1-rasm. Biznes jarayonlarini takomillashtirishning asosiy bosqichlari.

Ushbu rasmda biznes jarayonlarini takomillashtirishning asosiy bosqichlari aks ettirilgan bo‘lib, takomillashtirishda mavjud jarayonlarni tahlil qilish, reja ishlab chiqish, rejani amalga oshirish va natijalarni monitoring qilish hamda baholash bosqichlari ketma-ketligi ko‘rsatilgan.

Biznes jarayonlarini takomillashtirishning asosiy bosqichlari:

1. Mavjud jarayonlarni tahlil qilish:

✓ Jarayonlarni batafsil o‘rganish va hujjatlashtirish (jarayonlar xaritalari, diagrammalar va boshqa vizual vositalardan foydalanish).

✓ Jarayonlardagi kamchiliklar, takrorlanishlar, kechikishlar va boshqa muammolarni aniqlash.

✓ Jarayonlarning samaradorligini o‘lchash va baholash uchun ko‘rsatkichlarni (KPI) belgilash.

2. Takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash:

✓ Muammolarning asosiy sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini topish.

✓ Yangi texnologiyalar, usullar va yondashuvlarni qo‘llash orqali jarayonlarni optimallashtirish imkoniyatlarini o‘rganish.

✓ Xodimlarning fikr-mulohazalari va takliflarini yig‘ish va ularni hisobga olish.

3. Takomillashtirish rejasini ishlab chiqish:

✓ Aniqlangan muammolarni hal qilish va imkoniyatlardan foydalanish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash.

✓ Har bir chora-tadbir uchun mas’ullarni tayinlash, muddatlarni belgilash va resurslarni ajratish.

✓ Takomillashtirish natijalarini o‘lchash va baholash uchun yangi ko‘rsatkichlarni (KPI) joriy etish.

4. Takomillashtirish rejasini amalga oshirish:

✓ Rejaga muvofiq chora-tadbirlarni amalga oshirish.

✓ Xodimlarni yangi jarayonlar va texnologiyalarga o‘rgatish.

✓ O‘zgarishlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan qarshiliklarni bartaraf etish va xodimlarni qo‘llab-quvvatlash.

5. Natijalarni monitoring qilish va baholash:

✓ Takomillashtirish natijalarini yangi joriy etilgan ko‘rsatkichlar (KPI) asosida o‘lchash va baholash.

✓ Jarayonlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rish.

✓ Doimiy ravishda jarayonlarni takomillashtirish va yangi imkoniyatlarni izlash.

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, biznes jarayonlarini takomillashtirish, mavjud jarayonlar, tahlil qilish, samaradorlikni oshirish, faoliyat, kamchiliklar, muammolar, sifat, tezlik, raqobatbardoshlik, xarajatlarni kamaytirish, mijozlar qoniqishi, ish natijalari, jarayonlar xaritalari, diagrammalar, KPI, muammolarning sabablari, yangi texnologiyalar, usullar, yondashuvlar, xodimlar fikr-mulohazalari, takomillashtirish rejasini, chora-tadbirlar,

mas'ullar, muddatlar, resurslar, natijalarni monitoring qilish, baholash kabilarni o'z ichiga oladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, biznes jarayonlarini takomillashtirishning o'ziga xos afzalliklari ham mavjud. Buni quyida ko'rib chiqamiz.

Biznes jarayonlarini takomillashtirishning afzalliklarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, samaradorlikni oshirish, sifatini yaxshilash, xatarni kamaytirish kabi imkoniyatlar mavjudligini bilish mumkin.

Ular qo'yidagilar:

- Samaradorlikni oshirish: Vaqt va resurslarni tejash, mehnat unumdorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish.

- Sifatni yaxshilash: Mahsulot yoki xizmatlar sifatini oshirish va mijozlar qoniqishini ta'minlash.

- Raqobatbardoshlikni oshirish: Bozordagi o'zgarishlarga tezkor moslashish va yangi imkoniyatlardan foydalanish orqali raqobat ustunligiga erishish.

- Xatarlarni kamaytirish: Jarayonlardagi zaiflik va kamchiliklarni bartaraf etish orqali kompaniya faoliyatidagi xatarlarni kamaytirish.

- Moliyaviy natijalarni yaxshilash: Samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish orqali kompaniyaning foydasini ko'paytirish.

Loyihani boshqarish amaliyotidagi o'zgarishlar loyihalarni boshqarish usullari qo'llaniladigan boshqaruv ob'ektlari doirasini kengaytirish bilan ham, loyihalarning xususiyatlarini va ularni amalga oshirish usullarini hisobga olgan holda takomillashtirilgan yoki yangi

usullar va vositalardan foydalanish bilan bog'liq amalga oshiriladi. So'nggi yillarda maqsadlarni belgilash va loyihalar muvaffaqiyati mezonlarini shakllantirishga yondashuvlar sezilarli darajada o'zgardi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, biznes jarayonida loyihalar har tomonlama puxta tuzib chiqilishi zarur. Lekin shunga qaramay, muvaffaqiyatsiz loyihalar soni sezilarli darajada qolmoqda. Boshlangan loyihalarning ko'p qismi belgilangan muddat va budjetdan tashqarida yakunlanadi, to'liq belgilangan maqsadlarga erishmaydi yoki umuman tugallanmaydi. Bu faktlar shuni ko'rsatadiki, bir tomondan, loyihalarni boshqarish nazariyasining rivojlanishi va uni qo'llash amaliyoti o'rtasida tafovut mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, loyiha boshqaruvini qo'llashning yangi sohalari usullarni yanada rivojlantirish va moslashtirishni talab qiladi.

Bunday muammolar bir qancha me'yoriy xujjatlarda o'z aksini topgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 iyuldagi «O'zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5120-son Farmonini aytish mumkin. Farmonga muvofiq, loyiha boshqaruvining yagona axborot tizimini yaratish orqali davlat va hududiy dasturlar, investitsiya loyihalari amalga oshirilishini, moliyaviy mablag'lar sarflanishini boshqarish mexanizmlarining samaradorligi va shaffofligini yanada oshirish ko'zda tutilgan. Ushbu Farmonga ko'ra, davlat ahamiyatiga molik loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini sifatli tashkil etish,

muvoqilash, monitoring hamda nazorat qilishni ta'minlovchi loyiha boshqaruvining yagona tizimi mavjud emasligi, loyihalarni amalga oshirish sur'ati va samaradorligini tezkor kuzatish imkonini beruvchi ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshqaruv jarayoniga yetarlicha joriy etilmaganligi qayd etilgan va bu borada chora-tadbirlar ishlab chiqilgan[11].

Loyiha boshqaruvi sohasidagi birinchi ishlanmalar murakkab, yirik loyihalar va dasturlarni boshqarishning aniq amaliy muammolarini hal qilish zarurati natijasida paydo bo'ldi. Va bugungi kunda loyihalarni boshqarish usullari va vositalarini ishlab chiqish amaliy tajribaga asoslanadi. Loyiha boshqaruvi intizomini rivojlantirishda ilg'or tajribalarni to'plash, ularni umumlashtirish va standartlashtirish jarayonlari muhim rol o'ynaydi. Biroq, turli sohalarda va muayyan loyihalarda loyihalarni boshqarish usullari va vositalarini qo'llash uchun menejerlar ularni takomillashtirish va moslashtirishlari kerak, bu esa o'z navbatida yangi usullar va vositalarni ishlab chiqishga olib keladi.

Loyihani boshqarish usullarini axborot tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish, biznesni qayta tashkil etish, marketing kompaniyalari, xodimlarni rivojlantirish dasturlari va boshqa ko'plab tadbirlarda qo'llash ko'plab tashkilotlarga tanish bo'ldi. Ushbu yondashuvlarni qo'llashning yangi yo'nalishlari qatoriga yirik davlat loyiha va dasturlari ham, kichik va o'rta biznes sohasidagi kichik loyihalar ham kiradi. An'anaviy jarayonga

yo'naltirilgan ishlab chiqarish va boshqaruv tizimiga ega bo'lgan tobora ko'proq korxonalar o'zlarining rivojlanish jarayonlari samaradorligini oshirish uchun loyihalarni boshqarish tizimlarini joriy qilishni boshlaydilar.

Davlat organlari tomonidan ham loyihalarni boshqarishga qiziqish ortib bormoqda. Loyihaga yo'naltirilgan usullar individual loyihalarni boshqarishda ham, maqsadli dasturlar darajasida ham qo'llaniladi. Davlat sektorida amalga oshirilayotgan loyiha va dasturlar an'anaviy loyihalarni boshqarish usullarini takomillashtirish va moslashtirishni talab qiluvchi qator xususiyatlarga ega.

Dunyoning bir qator mamlakatlarida davlat va davlat boshqaruvi organlari loyihalarni boshqarish metodologiyasida davlatning samarali rivojlanishini ta'minlashning muhim vositasini ko'rdi va loyihalarni boshqarish sohasida milliy salohiyatni shakllantirishni e'lon qildi.

Xulosa

Biznesda loyiha boshqaruvi, kompaniya muvaffaqiyatining muhim qismidir. U malakali boshqaruvchilarning yordamida tashkilotlarga maqsadlariga tezroq va samarali ravishda erishishga yordam beradi. Loyiha boshqaruvi jarayonida to'g'ri strategiyalar va tahlillarni qo'llash, biznesning o'sishiga va rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, biznes jarayonlarini rivojlanish (takomillashtirish) jarayonlarini alohida guruhga taqsimlash zamonaviy menejment ehtiyojlariga mos keladi, chunki raqobatdoshlik bilan takomillashtirish muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur shartdir. Shakllangan biznes jarayonlari

samaradorligi uchun muntazam ravishda sinovdan o'tkazilishi kerak. Jarayonlarning samarasizligi sabablarini tahlil qilish va bartaraf qilish kerak. Biznes-jarayonlarni samarali shakllantirish kompaniyani samarali boshqarish maqsadlardan biri bo'lishi kerak.

Umuman olganda biznes jarayonlarini takomillashtirishda kompaniyaning doimiy rivojlanishi va o'sishi uchun muhim omil hisoblanadi. U kompaniyaga zamonaviy bozor talablariga moslashish, mijozlar ehtiyojlarini qondirish va uzoq muddatli muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Xolmamatov D.H., Boyjigitov S.K. Marketing asoslari: Darslik – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. – Samarqand.: “STEP-SEL” MChJ. nashryot-matbaa bo'limi, 2022 - 314 bet.
- 2.M.S.Qosimov. Loyihaboshqaruvi. O'quvqo'llanma.– T.: «Innovatsion rivojlanish nashryot-matbaa uyi», 2021 –160b.
- 3.Harvard Business Review Project Management Handbook: How to Launch, Lead, and Sponsor Successful Projects (HBR Handbooks) Paperback – October 19, 2021.
- 4.Abdullayev I.S. Marketing (Darslik) – T.: “Инновацион ривожланиш нашриёти – матбаа уйи”, 2020, 324 bet
- 5.Шеер, А.В. Бизнес-процессы. Основные понятия. Теория. Методы / А.В.Шеер. – М.: Весть-Метатехнология, 2008. – 182 с
- 6.Голубков Е.П. Маркетинг для профессионалов: практический курс : учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / Е. П. Голубков. — Москва : Издательство Юрайт, 2019. — 474 с.
- 7.Репин В., Елиферов В. Процессный подход к управлению. Моделирование бизнес-процессов. Манн, Иванов и Фербер, 2013.
- 8.Suyunov D.X., Xolbaev B.A. Loyiha boshqaruvi: uslub va standartlar. O'quv qo'llanma. 2021. – 208 b.
- 9.Harold Kerzner PMI. Project Management. A Systems Approach to Planning, Scheduling, and Controlling Published by John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, New Jersey. Published simultaneously in Canada, 2017, p. 840.
- 10.Karimova D. Ijtimoiy media marketingi: Asoslari va amaliy qo'llanmalari. Andijan. 2021.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5120-son Farmon. 2017 yil 24 iyul.
12. www.undp.org
13. <https://cat-sa.uz>
14. <https://arxiv.uz>